

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti  
Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti yo'nalishi  
magistranti Yuldasheva Parvinaning  
"Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi " mavzusidagi  
chellenj

## BAYONNOMASI

2025-yil 10-iyun

Buxoro shahri

**Tadbirni o'tkazishdan maqsad:** O'quvchilarni milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat hayoti hamda ijodi bilan tanishtirish va kitobga bo'lgan mehrini uyg'otish.

**Ishtirok etdilar:** 11-sinf o'quvchilar

### Kun tartibi:

Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi bo'yicha davra suhbatini hamda asarlari taqdimoti  
Ma'ruzachi: Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti yo'nalishi magistranti -  
Yuldasheva Parvina

Joriy yilning 10-iyun kuni Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti yo'nalishi magistranti -Yuldasheva Parvina tomonidan 11-sinf o'quvchilariga Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi, asarlari bo'yicha taqdimot o'tkazildi. O'quvchilar bilan birgalikda chellenj o'tkazildi. Abdurauf Fitrat hayoti bo'yicha ma'lumotlar berildi, "O'git" she'ri o'quvchilar tomonidan ijro etildi.

Abdurauf Fitrat – o'zbek milliy uyg'onish davri (jadidchilik) adabiyotining yirik vakili, ma'rifatparvar, olim, adib, dramaturg, tilshunos va jamoat arbobi sifatida nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham yuksak hurmat va e'tiborga sazovor shaxsdir. Uning boy ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganish va yosh avlodga yetkazish muhim vazifalardan biridir.

Fitrat hayoti va ijodini o'quvchilarga targ'ib qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad – yoshlar qalbida milliy g'urur, Vatanga muhabbat, erkin fikrlash, ilm-fanga intilish tuyg'ularini uyg'otishdir. Fitrat o'z asarlari orqali xalqni jaholatdan qutqarish, ilm-ma'rifatga yetaklash, taraqqiy etgan jamiyat barpo etishga da'vat qilgan. Uning adabiy va ilmiy merosi yosh avlodni komil inson bo'lib voyaga yetishida muhim o'rin tutadi.

Shu bilan birga, Fitratning "Chig'atoy g'urungi"dagi faoliyati, tarixiy-madaniy merosga bo'lgan yondashuvi, ona tilini rivojlantirish borasidagi xizmatlari orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish zarurligi tushuntiriladi.

Xulosa qilib aytganda, Fitrat hayoti va ijodini targ'ib etish – bu faqat tarixiy shaxsni tanitish emas, balki yosh avlodni ma'rifatli, vatanparvar va ongli inson etib tarbiyalash yo'lida muhim qadamlardan biridir.

